

**O‘ZBEK TANISHUV E‘LON MATINLARIDA QO‘LLANUVCHI
NUTQIY BIRLIKLARNI O‘ZBEK ELEKTRON KORPUSIDA
BERILISHI**

Bekmuxamedova Nargiz Islamovna

Mirzo Ulug‘bek nomli

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchi

Аннотация. Данная статья о текстах брачных объявлений исследуемых с точки зрения лингвокультурологии и социолингвистики. Исследователь подчеркивает необходимость включения лексических единиц, используемых в узбекских брачных объявлениях, в узбекский электронный корпус. Пословицы, поговорки, фразеологизмы, устойчивые словосочетания выполняют кумулятивную функцию, которая передаётся из поколения в поколение. Данный пласт лексики непосредственно характеризует узбекскую культуру и менталитет. В статье автор через лексические единицы, используемые в узбекских брачных объявлениях, смог показать своеобразие, языковое богатство, красоту узбекского языка.

Ключевые слова: узбекские брачные объявления, электронный корпус, лексические единицы, менталитет, социолингвистика, лингвокультурология, мини — тексты.

Abstract. This article is about the texts of marriage announcements studied from the point of view of linguoculturology and sociolinguistics. The researcher emphasizes the need to include lexical units used in Uzbek marriage announcements in the Uzbek electronic corpus. Proverbs, sayings, phraseological phrases, and stable word combinations perform cumulative function, which is passed on from generation to generation. This stratum of lexicon directly characterizes Uzbek culture and mentality. In the article the author through the lexical units used in Uzbek marriage announcements was able to show the originality, linguistic richness, beauty of the Uzbek language.

Keywords: Uzbek marriage announcements, electronic corpus, lexical units, mentality, sociolinguistics, linguoculturology, mini - texts.

So‘ngi yillarda tanishuv e‘lonlarga bo‘lgan qiziqish dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham oshib bormoqda. Bugungi kunda tanishuv e‘lonlar jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib qolgan. Bunday turdagi matnlarni nafagat davriy nashrlarda, balki ijtmoly tarmoqlarda ham ko‘rish mumkin.

Hozirda Yevropa va MDH davlatlarida tanishuv e‘lonlar yolg‘izlikning oldini olish, erkak va ayollar o‘rtasidagi vaqtincha mulogot vositasi maqsadida beriladi.

Bizning o‘zbek tilidagi tanishuv e‘lonlarning funksiyasi esa, qaysidir ma‘noda oila institutini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu turdagi matnlar lingvokulturologiyada o‘rganiladi. Tanishuv e‘lon matnlari bir standartga mos bo‘lishi bilan birga, ular bir birlaridan ma‘lum bir jihatlar bilan farglanadi. Bunda tanishuv e‘loni berayotgan millat vakilining mintalitetiga xos jihatlar kuzatiladi. Masalan, rus tanishuv e‘lonlarida “не пью”, “не курю” (ichmayman, chekmayman) nutqiy birliklarini uchratishimiz mumkin. E‘lon beruvchi talabgor bunday illatdan xoli ekanligini ta‘kidlaydi.

O‘zbek tanishuv e‘lonlarida esa talabgorlar o‘zi haqidagi yoki orzusidagi turmush o‘rtog‘ini “uyim - joyim”, “bolam - chaqam deydigan” bo‘lishini xohlaydi. Yoki bo‘lmasa, “... bilan baxtli oila qurish niyatidaman”, “... yo‘ldosh bo‘lsa, hurmat - izzatini doim joyiga qo‘yib yurardim”, “tinch - totuv yashashni xohlayman”, “... bilan oila qurib, bola - chaqali bo‘lish, ularning rohatini ko‘rish umididaman” kabi misollar o‘zbek xalqi uchun “oila – muqaddas” ekanligi va “o‘zbeklarning bolajon” lidan dalolat beradi.

Undan tashqari bunday mini - matnlar sotsiolingvistikanig ham organish ob‘ekti hisoblaniladi. Tanishuv e‘loni matnning birinchi qismida talabgor - shaxs o‘zining xarakteri, o‘ziga xos xususiyatlari, ya‘ni yoshi, jinsi, ma‘lumoti, kasbi, dunyoqarashi, tashqi ko‘rinishi, qiziqishlari haqida ma‘lumot beradi. Masalan, “o‘rta bo‘yli”, “pazanda”, “istarasi issig‘”, “to‘ladan kelgan”, “oliy malumotli”, “xamshira”, “ko‘hlikkina”, “yoshiga nisbatan yosh ko‘rinadigan”, “yoshimga qaraganda ancha baquvvatman” va hokazo. Bu ma‘lumot ma‘lum bir ma‘nodainsonning tashrif qog‘ozidek. Ushbu matnlarni o‘qish davomida talabgor- shaxsning obrazi gavdalanadi.

Mini - matnning ikkinchi qismida talabgor, orzudagi turmush o‘rtog‘ining portretini chizadi. Uning oldiga ma‘lum bir talablarmi qo‘yadi. Bevosita bularning barchasi matnda lingvistik vositalar orqali amalga oshiriladi. Talabgorning ichki dunyosi haqida gap ketganda, matnda sifat so‘z turkumiga xos so‘zlar ishlatiladi.

Kichik hajmdagi matnlarni shakllantirishda turli xil nutqiy birliklar qo‘llaniladi. Ichki dunyo tavsifida, mintaletet bilan bog‘liq ma‘naviy va tarbiyaviy an‘analarga tayaniladi. Masalan, ayollarni tasvirlaganda quyidagi nutqiy birliklardan foydalaniladi: “muslima ayol”, “og‘ir - bosiq”, “saranjon - sarishta”, “qoli shirin”, “oyoq - qo‘li chaqqon”, “sabr - qanoatli”, “tagli - tugli”, erkaklarga qo‘yilgan talablarda esa “toparmon - tutarmon”, “kasb - korli”, “diyonatli”, “uy - joyli”, “yomon illatlardan xoli bo‘lishini”, “nasl-nasabli” va “poytaxtda yashashini xohlaydilar”.

Tanishuv e‘loni matnlaridagi nutqiy birliklar o‘zbek elektron korpusida berilishi kerak, chunki ular ma‘lum bir lisoniy vositalar bilan cheklangan, aniq kompozitsiya va tizimga, o‘zining vazifasiga ega kichik matnlar bo‘lib, ularda o‘zbek tilini o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bizning o‘zbek tilimizdagi maqol, malal, aforizm, frazeologizm, turg‘un birikmalarimiz singari tanishuv e‘lon matnlaridagi nutqiy birliklar ham o‘zbek elektron korpusida ma‘lum bir o‘rin egallashi kerak. Shunday ekan, tanishuv e‘loni matnlardagi nutqiy birliklarni o‘zbek elektron korpusida berilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Акулова Е. В. Жанр «Объявления о закомстве» как особый вид общения // Проблемы речевой коммуникации: межвуз. сб. науч. тр / Под ред М.А. Кормилицыной, О. Б, Сиротининой.—Саратов: Изд-во Саратов.ун-та, 2009.
2. Кишина Е.В. Репрезентация концептов «мужчина», «женщина» в текстах БО // Изменяющийся славянский мир: новое в лингвистике. Севастополь, 2009.
3. Ольшанский И.Г. Тексты брачных объявлений как источник гендерной самондентификации // «Гендер: язык, культура, коммуникация» докл. Второй междунар. конф.- М.: 2003.
4. Рогалева О.С. Брачные объявления как речевой жанр рекламного дискурса (коммуникативно - прагматический и когнитивный аспекты): автореф. дис... канд. филол. наук.- Омск, 2005.
5. Царикевич Н.В. Социопрагматика текста брачного рекламного объявления (сравнительно — сопоставительный анализ русских и немецких текстов брачных рекламных объявлений): автореф. дис.. канд. филол. наук. — Пятигорск, 2007.

6. Mamatkadirovna K. N. TALABALARINI DARSDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLAR ASOSIDA MULOQOT MADANIYATIGA TAYYORLASH. – 2022.
7. Mamatkadirovna K. N. JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI SHAKILLANTIRISHDA TA'LIM INFORMASION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 18. – №. 5. – С. 338-341.
8. Mamatkadirovna N. K. Pedagogical system of development of culture of international communication in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 11. – С. 245-247.
9. Mamatkadirovna A. K. et al. Translation as a Special Type of Language and Intercultural Communication //JournalNX. – С. 176-180.
10. Kadamzhanovna, A.N.(2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY" MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67
11. Z Madraximova, Z & Ablaeva, N.(2022). CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS" HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845 2022
12. Madraximova, Z & Ablaeva, N. (2022) ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА" ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ". Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022
13. Аблаева, Н.К.(2022). Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Та'lim fidoyilari 6 (7), 687-691
14. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.17.
15. Rasulova, Azizaxon Muydinovna, & Xusanova, Ma'Rifat Axmadjonovna (2022). POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 807-811.
16. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. Theoretical & Applied Science, (4), 252-254.

17. Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna., Asomiddinova Gulruh Alijonovna. TIL ESTETIKASIGA DOIR. Analytical Journal of Education and Development Volume: 03 Issue: 03 | Mar-2023 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz 262-265.
18. Nasirov, A. N. (2019). STYLISTIC UNITS AND COMPOSITIONAL IMPARTIALITY. Theoretical & Applied Science, (12), 568-571.
19. Nasirov, A. N. (2023). Alisher navoiy obrazining badiiy ifodasi. Ustozlar uchun, 15(1), 35-39.
20. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
21. Sharipova, S., & Xalimova, F. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF TEACHING A LANGUAGE IN THE CLASSROOM AND THEIR SOLUTIONS. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 133-135. <https://doi.org/10.2024/41yemx68>
22. Taxirovna, A. S. (2023). EXPLORING LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS IN THE TRANSLATION OF STORIES: ENGLISH AND UZBEK PERSPECTIVES. ENG YAXSHI XIZMATLARI UCHUN, 1(6), 59-62.
23. A'zamjonovna, X. S., & Azimidin, N. (2023). ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT. Ustozlar uchun, 15(1), 72-77.